

SAMARADORLIKNI BAXOLASHDA MOLIVAVIY HISOBOTLAR  
TAHLILING AHAMYATI

HIKMATULLA FAYZULLAEV NEMATILLO O'G'LI

ANNOTATSIYA

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611 qarori talablari bo'yicha ko'pgina kompaniyalar hisobotlarni jahon standartlariga muvofiq tayorlash ko'paydi. Shuningdek moliyaviy hisobotlarning bir standarta yaratilishi kompaniyalarning axborotlarini solishtirish, potensial muomolarni va iqtisodiy xavflarni aniqlashga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, moliyaviy standartlar koeffitsienti, likvidlik, to'lov qobiliyati, faollik, rentabellik koeffitsientlari

Moliyaviy hisobotlar natijalari hozirgi kunda tashkilotni boshqarish, investitsiyalarni jalb qilish va to'g'ri investisiya siyosatini tuzishda yetakchi rol o'ynaydi. Bozor iqtisodiyotida bosqichma bosqich o'tish jarayonida buxgalteriya hisobiga qo'yib borilayotkan talablar ortib bormoqda. Shuningdek xalqaro standartlar talablariga javob berishi, ichki va tashqi ma'lumot foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondirishi, qaror qabul qilishda va biznes samaradorligini oshirishda moliyaviy tahlillarni to'g'ri va shaffof bo'lishi katta ahamiyatga ega. [1-4]

Hozirgi davrda buxgalteriya hisobi va hisobot ma'lumotlarini sharihlash, foydali ma'lumotlarni ahamiyatini oshirish, baholash va uni takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash maqsadida bir necha professional tadqiqotlar olib borilgan. Moliyaviy hisobotlarni jahon tajribalaridan foydalanib yaratish va tahlil qilish zamonamizning dolzarb masalasi bo'lib qolmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi farmonida quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilangan: xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, yetakchi xalqaro va xorijiy moliya institutlari bilan aloqalarni kengaytirish, tashqi qarzlarning puxta o'ylangan siyosatini davom ettirish, undan samarali foydalanish. [4]

Moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish atamasi moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish va sharhlash sifatida ham tanilgan. U ikki moliyaviy hisobotning turli xususan, daromadlar to'g'risidagi hisobot va yakuniy balans to'g'risidagi hisobot o'rtasida mazmunli munosabatni o'rnatib, biznesning moliyaviy kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi. Moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish korxonaning rentabelligi, likvidligi, samaradorligi va to'lov qobiliyatini o'lchash uchun yordam beradi. Moliyaviy hisobotlarni tahlil qilishning asosiy maqsadi moliyaviy hisobotlar ma'lumotlarini tushunish va diagnostika qilish, biznesning rentabelligi va moliyaviy kuchli tomonlarini aniqlashdir.

Moliyaviy hisobotlarni tahlil qilishning asosiy maqsadi moliyaviy hisobotlar ma'lumotlarini tushunish va diagnostika qilish, biznesning rentabelligi va moliyaviy kuchli tomonlarini aniqlashdir. Bunday tahlilning maqsadi tahlilga qiziqqan shaxsga va uning ob'ektiga bog'liq bo'lib, korxonaning holati haqidagi xulosani yaratishda natijalarni quyidagi jadvalga qiyoslab ko'rish mumkun:

**2 – jadval**

**Moliyaviy hisobot tahlilining standard koeffitsientlari**

<b>Koeffitsient</b>	<b>Juda yaxshi</b>	<b>Yaxshi</b>	<b>Qoniqarli</b>	<b>Yaxshi emas</b>
<b>Likvidlik koeffitsienti</b>				
Joriy koeffitsient	1,75-2	1.5-1.74	1.24-1.49	<1.25
Qisqa muddatli koeffitsient	1	0.75-0.99	0.5-0.74	0.5
Naxt pul koeffitsienti	>0,1	0.07-0.09	0.06-0.04	<0.04
<b>To'lov qobiliyati koeffitsienti</b>				
Qarzning aktivlarga nisbati	0-0.09	0.09-0.16	0.17-0.24	0.25
Qarzning kapitaliga nisbati	0-0.39	0.40-0.69	0.7-0.24	0.25
Uzoq muddatli qarzning aktivlarga nisbati	0-0.09	0.1-0.29	0.3-0.49	>0.5
Uzoq muddatli qarzning kapitaliga nisbati	0-0.09	0.9-0.16	0.17-0.24	0.25

## PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION

<b>Rentabillik</b>				
Foyda marjasi	>0.3	0.21-0.29	0.14-0.2	0.07-0.13
Aktivlarning daromadliligi	0.15	0.07-0.14	0.01-0.06	<0.01
Kapitalning daromadliligi	>0.21	0.1-0.2	0.01-0.09	<0.01
<b>Faollik koeffitsienti</b>				
Asosiy vositalar aylanmasi	>1.1x	0.6x-0.9x	0.5x-0.2x	< 0.2x
O'rtacha yig'ish davri	60 kun	30-59 kun	9-29 kun	< 9 kun
Jami aktivlar aylanmasi	> 1.1x	0.6x-0.9x	0.5x-0.2x	< 0.2

*Manba: Muallif tomonidan tayorlangan*

Yuqoridagi jadvaldagi moliyaviy natijalarni o'lchashdan shunday xulosaga kelish mumkin: moliyaviy hisobotning mavjudligi, kompaniyaning ma'lum bir davrdagi faoliyati ma'lum bo'lishi mumkin. Agar kompaniyaning ko'rsatkichlari yaxshi bo'lsa, kompaniya o'z biznesini samarali olib bormoqda deyish mumkin. Kompaniyaning uzoq muddatli faoliyati, samaradorligi va o'sib borayotkan bozorda omon qolishi rahbariyat tomonidan qabul qilinadigan doimiy individual va jamoaviy qarorlar soniga bog'liq.

Iqtisodiy tez rivojlanib borayotkan mamlakatimizda korxonalarining moliyaviy axvolini ko'rib turish, ularni nazorat qilish, qarorlarni to'g'ri qabul qilishda moliyaviy natijalarning tahlili ahamiyati juda katta. Moliyaviy natijalar tahlili yordamida kompaniyaning moliyaviy barqarorligi, qisqa va uzoq muddatli qarzdorlikni qoplash qobiliyati, likvidligini saqlab qolish va barqaror rentabilligi, uning aktivlar va majburiyatlari foydalanish qobilaytlarini bir raqamli o'lchovlar bilan yaqqol ko'rish va ushbu natijalarga asoslanib moliyaviy rejalar tuzish imkonini beradi. Bu o'z o'zida, menejment tomonidan qilinadigan qarorlar uchun zarur bo'lgan axborot bazasini yaratib, korxonaning o'sish yillik dinamikasini boshqa bir jixatdan ochib berishiga yordam beradi.

## REFERENCES

1. Исманов, И. Н., & Савинова, Г. А. (2021). Сопоставление Некоторых Аспектов Национальных Стандартов Бухгалтерского Учета и МСФО. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF INNOVATIONS ON TOURISM MANAGEMENT AND FINANCE, 2(11), 14-19.
2. Qudbiyev, N. T. (2021). Xalqaro moliyaviy hisob standartlariga o'tish dolzarbligi-Relevance of the transition to international financial accounting standards. SJ international journal of theoretical and practical research, 1(2), 56-64.
3. Кудбиев, Д. (2022). МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ АРЕНДЫ ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ И ИХ УЧЕТ. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 2(1), 57-62.
4. Axmadoxunova, X. O. (2021). O 'ZBEKISTON IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO MOLIYAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA O'TISHNING ROLI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 2(8), 257-261.
5. Атабаева, З. А. (2021). Оценка Финансового Состояния В Процессе Инвестиционного Проектирования. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES, 2(12), 309-314.
6. Atabaeva, Z. A., & Khojaev, A. S. (2020). ИНВЕСТИЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ И АНАЛИЗ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ. Theoretical & Applied Science, (5), 714-720.
7. Qudbiyev, N. T., Ulug'Bek Erkinjon, O. G. L., & Mominov, I. L. O. (2022). TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA ICHKI NAZORATNING SAMARALI

TIZIMI SIFATIDA ICHKI AUDITNING O‘RNI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 3(1), 449-457.

8. Adam H. (2023) DEFINITION AND UNDERSTANDING FINANCIAL RATIOS. <https://www.investopedia.com/terms/m/mean.asp>